



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
chaqiruvga qadar boshlang'ich  
tayyorgarlik fani o'qituvchisi

\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yili 10-sinf uchun  
I chorak

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

O‘IBDO‘ \_\_\_\_\_

2025-2026-o‘quv yili 10-sinf CHQBT fani uchun  
I chorak taqvim mavzu rejasi

| №   | O‘tiladigan mavzular rejasi                                                                                                                                    | Nazariy soat | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|-----|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|------------------------|-----------------------|
| 1.  | Buyuk sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy yurishlari                                                         | 1            |                        |                       |
| 2.  | Temur tuzuklari                                                                                                                                                | 1            |                        |                       |
| 3.  | O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi. Mustaqillik yillarida yurtimiz tinchligi uchun jonini fido qilgan qahramonlarimiz | 1            |                        |                       |
| 4.  | Umumiy harbiy majburiyat va Vatanga qasamyod                                                                                                                   | 1            |                        |                       |
| 5.  | Harbiy xizmat turlari                                                                                                                                          | 1            |                        |                       |
| 6.  | Harbiy unvonlar, harbiy kiyim-kechak va farqlovchi nishonlar                                                                                                   | 1            |                        |                       |
| 7.  | Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash                                                                                                                  | 1            |                        |                       |
| 8.  | Muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga chaqirish tartibi.                                                                        | 1            |                        |                       |
| 9.  | <b>BSB-1 [50 ball]</b>                                                                                                                                         | 1            |                        |                       |
| 10. | Saf va uning boshqarilishi                                                                                                                                     | 1            |                        |                       |
| 11. | Dastlabki va ijro komandalari, qad rostlab turish                                                                                                              | 1            |                        |                       |
| 12. | Joyda turib burilish                                                                                                                                           | 1            |                        |                       |
| 13. | Shaxdam qadam bilan harakatlanish                                                                                                                              | 1            |                        |                       |
| 14. | Shaxdam qadam bilan harakatlanish                                                                                                                              | 1            |                        |                       |
| 15. | Yurish davomida burilish                                                                                                                                       | 1            |                        |                       |
| 16. | Joyida va yurish davomida harbiycha salomlashish                                                                                                               | 1            |                        |                       |
| 17. | <b>CHSB-1 [40 ball]</b>                                                                                                                                        | 1            |                        |                       |
| 18. | Safdan chiqish va safga qaytish                                                                                                                                | 1            |                        |                       |

|              |  |  |  |  |
|--------------|--|--|--|--|
| <b>Sana:</b> |  |  |  |  |
| <b>Sinf:</b> |  |  |  |  |

**Mavzu: Buyuk sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy yurishlari**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:**

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o'rgatish;  
harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirish;  
Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

**Tarbiyaviy:**

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;  
favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;  
yosh avlodda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas'uliyatini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:**

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish;  
harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo'lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

**II. FK – fanga oid kompetensiyalar**

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

**Darsning borishi:**

| <b>№</b>    | <b>Bo'limlar</b>                                  | <b>Vaqt</b>      |
|-------------|---------------------------------------------------|------------------|
| <b>1</b>    | Tashkiliy qism                                    | 3 daqiqa         |
| <b>2</b>    | O'tgan mavzuni mustahkamlash                      | 5 daqiqa         |
| <b>3</b>    | Yangi mavzu bayoni                                | 15 daqiqa        |
| <b>4</b>    | Yangi mavzuni mustahkamlash                       | 10 daqiqa        |
| <b>5</b>    | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa        |
| <b>6</b>    | Uyga vazifa                                       | 2 daqiqa         |
| <b>Jami</b> |                                                   | <b>45 daqiqa</b> |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Jaloliddin Manguberdi (to'liq ismi – Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad; 1198 – 1231) – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori Alovuddin Muhammad Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li. Jaloliddin 33 yillik umrining 11 yilini turli janglar ichida o'tkazgan. Uning sarkardalik qobiliyati, jasurligi va vatanparvarligi dushmani – mo'g'ul xoqoni


Chingizxonning e'tirofiga sabab bo'lgan. 1221-yilgi Parvon dashtidagi jang. Sulton Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashdagi eng yirik jangi. Hudud tog'li va toshloq bo'lgani uchun otda jangovar harakatlar olib borish va manyovr qilish (dushmanga zarba berishda qulay sharoit yaratish)ga noqulay edi. Sultonning otliq askarlari ot jilovini bellariga bog'lab,



yayov holda kamondan dushmani o'qqa tutgan. Bu usul esa jang taqdirini hal qilgan. Sind daryosi bo'yidagi jang. Chingizxon katta qo'shin to'plab, Jaloliddin Manguberdiga qarshi jangga shaxsan o'zi otlangan. 1221-yilning noyabrida bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan Xorazmshoh 4000 jangchisi bilan Sind daryosining o'ng sohiliga suzib o'tib, cho'l ichkarisiga kirib ketadi. Bu joy hozirda ham Cho'li Jaloliy deb ataladi. Amir Temur Sharqda birinchilardan bo'lib armiyaga o'tsochar qurol – to'pni olib kirgan, tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalarni tashkil qilgan. Sohibqiron Jahon harbiy san'ati tarixida ilk bora qo'shinni jang maydoniga an'anaviy 5 qismga emas, balki 7 ta qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Qunduzcha yaqinidagi jang. 1391-yilda Amir Temur Oltin O'rda xoni To'xtamishxon qo'shiniga qarshi o'rta asrlardagi eng yirik janglardan birini o'tkazdi. Sohibqiron bu jangda markaz, o'ng va so'l qanotdan iborat an'anaviy tarkibdan voz kechib, jangovar tartibning yangi usulini qo'lladi: qo'shinni 7 ta qo'lga taqsimladi. Keyingi yurishlarda bu usuldan To'xtamishxon ham foydalandi.



Terek daryosi qirg'og'idagi jang (1395-yil). Amir Temur va Dashti Qipchoq hukmdori To'xtamishxon qo'shinlari o'rtasida Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi qirg'og'idagi No'g'ay dashtida sodir bo'lgan. Unda Sohibqiron qo'shini ilk bor otdan tushib, kamondan o'q uzish usulini qo'llagan. O'q uzish kamonchilarning vazifasi bo'lgani bois, dushman otliq qo'shından buni kutmagan. Avvaliga shiddat bilan hujumga o'tgan otliqlarning kerakli masofaga yetganda kamondan o'q yog'dirishi dushmanlarni sarosimaga solib, tartibsizlanishiga sabab bo'lgan. Panipat jangi. Dehlidan taxminan 100 km shimolda joylashgan Panipat yalangligida sodir bo'lgan. 1525-yil 21-aprelda Boburning 12 ming askari Dehli sultoni Ibrohim Lodiyning 100 ming jangchisi va jangovar fillariga qarshi kurashgan. Hind qo'shini jangni tartibsiz tarzda boshlagan. Bobur qo'shinining burong'or va juvong'ori to'lg'ama usuli bilan g'animning ort tomoniga o'tib, unga kuchli zarbalar bergan. Ibrohim Lodi esa asosan markazga hamla qilgan. Bobur ho'kizning xom terisidan eshilgan arqonlar bilan bir-biriga mahkam bog'langan 700 ta arava va ular orasiga o'rnatilgan qalqonlar panohida turgan to'fangdoz (chaqmoqtosh yordamida piltalarni otuvchi)larni jangga tashlaydi. To'fang va zambarak o'qlaridan yarador bo'lgan fillar chekinib,



piyodalarni yanchib o‘tadi. Sarosimada qolgan hindlar qocha boshlaydi. Jangda Ibrohim Lodiy va taxminan 50 ming hind jangchisi halok bo‘lgan. Bobur esa Dehli va Agrani zabt etib, Shimoliy Hindistonda Boburiylar davlatiga asos solgan.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

- 1 fikringizni bayon eting;
- 2 fikringizni asoslovchi biron sababni ko‘rsating;
- 3 ko‘rsatilgan sababning asosli ekanini isbotlovchi misol keltiring;
- 4 fikringizni umumlashtiring.

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)



|              |  |  |  |  |
|--------------|--|--|--|--|
| <b>Sana:</b> |  |  |  |  |
| <b>Sinf:</b> |  |  |  |  |

## **Mavzu: Temur tuzuklari**

### **Darsning maqsadi:**

#### **Ta'limiy:**

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat huquqiy asoslarining talablari hamda mohiyatini o'rgatish;  
harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, mas'uliyat va javobgarlikni shakllantirish;  
Vatan mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib voris bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

#### **Tarbiyaviy:**

umumharbiy nizomlarning harbiy xizmatchilar hayotidagi ahamiyatini, Vatanga qasamyod va uning talablarini anglash;  
favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofdagilarga birinchi tibbiy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;  
yosh avlodda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatan taqdiri uchun daxldorlik mas'uliyatini shakllantirish;

#### **Rivojlantiruvchi:**

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish;  
harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo'lish, xalq taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirish.

### **II. FK – fanga oid kompetensiyalar**

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

### **Darsning borishi:**


| <b>№</b>    | <b>Bo'limlar</b>                                  | <b>Vahti</b>     |
|-------------|---------------------------------------------------|------------------|
| <b>1</b>    | Tashkiliy qism                                    | 3 daqiqa         |
| <b>2</b>    | O'tgan mavzuni mustahkamlash                      | 5 daqiqa         |
| <b>3</b>    | Yangi mavzu bayoni                                | 15 daqiqa        |
| <b>4</b>    | Yangi mavzuni mustahkamlash                       | 10 daqiqa        |
| <b>5</b>    | O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa        |
| <b>6</b>    | Uyga vazifa                                       | 2 daqiqa         |
| <b>Jami</b> |                                                   | <b>45 daqiqa</b> |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.** o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

### **III. Yangi mavzu bayoni:**

“Temur tuzuklari” 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlik ka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy



tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lgani buyuk Sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qism Amir Temurning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyati, pand-nasihatlar va o'gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyani tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohlarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash xususida gap boradi.

Amir Temur o'z faoliyati davomida harbiy ilmning rivojiga alohida ahamiyat bergan. "Temur tuzuklari"dagi harbiy sohaga oid nazariy bilimlar – tadbirlar, kengashlar, sipoh saqlash, vazir tutish, mamlakatlarni zabt etish haqidagi ma'lumotlar qimmatlidir "Jang-u jadal, urush maydoniga kirish va chiqish, qo'shinni saflash, g'anim lashkarini sindirish" tuzuki Amir Temur qo'shini tarkibidagi qo'shilmalarning asosi bo'lib, aynan jang qilish harakatlarini belgilagan. Agar dushman lashkari 12 ming otliqdan kam bo'lsa, bu urushda lashkarga amir ul-umaro sardorlik qilishi belgilangan. Ushbu tuzukda Sohibqiron qo'shinining jangovar joylashuvi, dushman bilan jang olib borish ketma-ketligi, qo'mondonlarning ish tartibi, dushmanni baholash mezoniga qo'yilgan talablarni yozib qoldirgan.



#### Jangovar harakatlarda qo'shinining hududda joylashuvi bo'yicha talablar

| Amir Temur davridagi harbiy san'at                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Zamonaviy davrdagi harbiy san'at                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>• birinchidan, jang maydoni suvga yaqin yoki uzoqligi (hududning suv bilan ta'minlanish shart-sharoitlari) o'rganilishi;</li> <li>• ikkinchidan, askar saqlaydigan joyning xavfsiz (hududning panalash va niqoblash shart-sharoitlari) bo'lishi;</li> <li>• uchinchidan, qo'shin g'anim lashkari turgan yerdan yuqorida joylashishi va quyosh shu'lasini sipohlarning ko'zini qamashtirmasligi uchun oftobga ro'baro' bo'lmasligi;</li> <li>• to'rtinchidan, o'q uzish, kuzatish sharoitlari qulay bo'lishi uchun urush maydoni keng va oldi ochiq bo'lishi lozim.</li> </ul> | <ul style="list-style-type: none"> <li>• bo'linmalar quduq, ariq va boshqa suv manbalariga imkon qadar yaqin bo'lgan hududda joylashishi;</li> <li>• dushmanni ommaviy qirg'in va yuqori aniqlikka ega qurollari ta'siridan himoyalashi uchun bo'linma joylashgan manzil tabiiy pana hududlarga ega bo'lishi;</li> <li>• qo'shin ustuvorlikka ega bo'lgan tepaliklarni egallashi, vaziyatni baholash davomida iqlim sharoitlarini inobatga olishi;</li> <li>• bo'linmalarining tarqoq va yashirincha joylashuvi, tezlik bilan yig'ilish va zarur yo'nalishda manyovra o'tkazishni ta'minlash lozim.</li> </ul> |

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1 Amir Temurning jangovar uslublari va strategiyasi qanday edi?

2 U o'z qo'shinini qay tarzda boshqargan?

3 Amir Temurning jangovar strategiyalarida qanday yangi yondashuvlar bor edi?

4 Zamonaviy harbiy strategiyalar uchun Amir Temurning uslublari qanday saboqlar olish mumkin?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)

[Zokirjon.com](http://Zokirjon.com). veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**45 listdan iborat CHQBT fanidan 10-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**



***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**